


Ўзбек
xalq ertaklari

SUSAMBIL



O'zbek xalq ertaklari

SUSAMBIL




UO‘K 398.21(=512.133)
KBK 82(50‘)
X 22

Ertaklar xalq og‘zaki ijodining eng boy va rang-barang janrlaridan biridir. Ular sodda va tushunarli bo‘lgani uchun har qanday kitobxon ongiga tez yetib boradi. Ertaklarda xalqning kelajakka bo‘lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g‘alabasi, yorug‘likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g‘oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlanadi. Yaramas odatlar, noma‘qul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik kabi g‘oyalar ulug‘lanadi.

Kichkintoylar o‘zlari tinglagan yoki o‘qigan ertaklari yordamida atrof olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu nima yomonligini bilib o‘saveradilar.

O‘ylaymizki, bu kitobcha ham bolajonlarimizning doimiy hamrohiga aylanadi, ularni ezgulik sari yetaklashga xizmat qiladi.



ISBN 978-9943-07-759-1

© „Ensiklopediya nashriyoti“, 2022

URTO‘QMOQ

(O‘zbek xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir kampir bilan chol bor ekan. Ular ovchilik bilan kun o‘tkazar ekanlar. Bir kuni chol tuzoq poylab o‘tirgan ekan, tuzoqqa katta bir laylak tushibdi. Yugurib borib, laylakni tuzoqdan chiqargan ekan, laylak odamdek so‘zlay boshlabdi:

– Bobo, men laylaklarning boshlig‘iman, meni qo‘yib yuboring, nima tilasangiz, shuni beraman. Mening makonim shu qarshidagi tog‘ning orqasida. „Laylakvoyning uyi qayda?“ desangiz, hamma aytib beradi, – debdi.



Chol laylakni qo'yib yuboribdi.

Ertasiga ertalab turib, Laylakvoyning sovg'asini olib kelish uchun yo'lga tushibdi. Yurib-yurib, bir joyga borib yetibdi. Qo'y boqib yurgan cho'ponlardan:

– Bu qo'ylar kimniki? – deb so'rabdi.

– Bu qo'ylar Laylakvoyniki, – deb cho'pon cholni yo'lga solib yuboribdi.


Bir joyga borib, yilqi haydab yurgan yilqichiga:

– Bu yilqilar kimniki? – deb so'rabdi chol.

Yilqichi:

– Laylakvoyniki, – debdi.

– Laylakvoy menga sovg'a va'da qilgan edi, nima so'ray ekan-a? – degan ekan, yilqichi:



– Laylakvoyning bir xumchasi bor, „Qayna, xumcha“ desangiz, tilla qaynab chiqadi, shu xumchani so‘rang, – debdi.

Chol oz yurib, ko‘p yurib, ko‘p yursa ham mo‘l yurib, yetti kecha-yu yetti kunduz deganda Laylakvoyning uyiga borib yetibdi. Eshikdan kirib:



– Assalomu alaykum, – debdi.

Laylakvoy:


– Gar salomingiz bo‘lmaganda, ta‘ziringizni berardim. Siz sovg‘a uchun kelgan bo‘lsangiz kerak, qani, nima so‘raysiz mendan? – debdi.


– Men sendan „Qaynarxumcha“ni so‘rayman, – debdi chol.

Laylakvoy cholning tilagini eshitib o‘ylab qolibdi:

– Bobo, sizga bir tovoq tilla beray, – desa ham chol ko‘nmabdi. Oxiri „Qaynarxumcha“ni berishga rozi bo‘libdi.

Chol „Qaynarxumcha“ni olib jo‘nabdi. Yo‘l yurib, mo‘l yurib, bir joyga yetibdi. Dam olish uchun o‘tiribdi. U yerda bir gala qishloq bolalari o‘ynab yurishgan ekan. Ularga qarab:





– O‘g‘illarim, mana bu xumchaga qarab turinglar, men biroz mizg‘ib olay, faqat „Qayna, xumcha“ demanglar, – deb tayinlab, uyquga ketibdi.

– Bolalar chol uxlashi bilan „Qayna, xumcha“ deb baqirishgan ekan, xumdan tilla qaynab chiqibdi, shoshib-pishib bolalar tillalarni yig‘ib olib, xumni uylariga olib kirib berkitib qo‘yishibdi, „Qaynarxumcha“ning o‘rniga boshqa bir xumchani olib kelib qo‘yibdilar. Hech narsadan xabari yo‘q chol uyqudan turib, xumchani olib jo‘nabdi. Yetti kecha, yetti kunduz yo‘l yurib, uyiga yetib kelibdi va kampiriga:

– Qani, kampir, dasturxonni yoz, hozir tillaga boy bo‘lamiz, – debdi.

Kampir dasturxonni yozibdi, dasturxonning o‘rtasiga xumchani qo‘yib, chol borkuchi bilan „Qayna, xumcha“ deb baqiribdi. Xumchadan tilla qaynab chiqmabdi. Chol yana baqiribdi, tilla qaynamabdi. Cholning jahli chiqib: „Ha, la‘nati Laylakvoy, meni aldab, boshqa xumcha beribdi-da. Men ertagayoq borib, undan boshqa sovg‘a so‘rayman“, deb qo‘yibdi.

Ertasi saharlab chol yana yo‘lga chiqibdi. Yilqichining oldiga borib:

– Laylakvoy meni aldadi, endi nima sovg‘a so‘ray ekan, – debdi.

Yilqichi o‘ylab turib:

– „Ochil dasturxon“ni so‘rang, dasturxonni yozib, „Ochil, dasturxon“ desangiz, har xil taomlar tayyor bo‘ladi, – debdi.

Chol Laylakvoyning makoniga yetib kelibdi va eshikdan kirib:

– Assalomu alaykum, – debdi.

Laylakvoy:

– Gar salomingiz bo‘limganda, ta‘ziringizni berardim. O‘tgan gal sizga „Qaynarxumcha“ni bergandim, ko‘nglingiz to‘lmadimi, bobo? – debdi.

Chol hamma voqeani aytib beribdi:

– Meni aldading, „Qaynarxumcha“ning o‘rniga boshqa xumcha beribsan, endi sendan „Ochildasturxon“ni so‘ragani keldim, – debdi. Laylakvoy o‘ylab qolibdi. Oxiri „Ochildasturxon“ni cholga sovg‘a qilibdi. Chol yo‘lga tushibdi. Oz yurib, ko‘p yurib, o‘tgan gal dam olgan qishloqqa borib yetib, o‘ziga tanish bo‘lib qolgan bolalarni ko‘ribdi.

– O‘g‘illarim, mana shu dasturxonni ushlab o‘tiring, men biroz mizg‘ib olay, faqat „Ochil, dasturxon“ demanglar, – deb ularga tayinlabdi.

Uuyqugaketgandanso‘ngbolalar, „Ochil, dasturxon“, deb baqirgan ekanlar, yetti xil taom tayyor bo‘libdi. Bolalar taomlarni o‘rab, dasturxonni uylariga olib kirib, o‘rniga boshqa dasturxon olib chiqib qo‘yishibdi. Chol uyqudan turib dasturxonni olibdi va yo‘lga tushibdi. Uyiga kelib:

– Kampir, nima taom desang, hozir tayyor bo‘ladi, – deb dasturxonni yozibdi. „Ochil, dasturxon“, degan ekan, hech qanday taom chiqmabdi. Cholning jahli chiqib, „Laylakvoy meni ikkinchi marta aldadi, endi ertaga borib boshqa sovg‘a so‘rayman“, deb qo‘yibdi.

Ertasi saharlab chol yana yo‘lga tushibdi. Yilqichining oldiga borib bo‘lgan voqealarni aytib beribdi va:

– Endi Laylakvoydan nima so‘ray ekan? – debdi.

– Laylakvoydan „Urto‘qmoq“ni so‘rang, dushmaningiz ko‘pga o‘xshaydi, agar „Ur, to‘qmoq“ desangiz, oldingizda kim bo‘lsa, urib tashlaydi, – debdi yilqichi.

Chol yo‘lga tushibdi va Laylakvoyning makoniga yetib kelib, eshikdan:

– Assalomu alaykum, – deb kiribdi.

Laylakvoy:

– Gar salomingiz bo‘lmaganda, ta‘ziringizni berardim. Yana nima uchun keldingiz, bobo? „Qaynarxumcha“ni oldingiz, „Ochildasturxon“ni oldingiz, sizga yana nima kerak? – debdi.

– Meni bu gal ham aldading, Laylakvoy! „Qaynarxumcha“ning o‘rniga oddiy xumcha berganding, „Ochildasturxon“ o‘rniga boshqa bir dasturxon beribsan. Endi sendan bir narsa so‘rayman, menga „Urto‘qmoq“ni ber, – debdi.

Laylakvoy cholga „Urto‘qmoq“ni hadya qilibdi. Chol „Urto‘qmoq“ni olib yo‘lga tushibdi. Oz yurib, ko‘p yurib, avvalgi o‘zi bilgan qishloqqa borib yetibdi. Tanish bolalarni chaqiribdi.

– O‘g‘illarim, mana shu to‘qmoqni ushlab turinglar, men biroz mizg‘ib olay, faqat „Ur, to‘qmoq“ demanglar, – debdi. U uyquga ketgandan so‘ng bolalar qiziqib, „Ur, to‘qmoq“ deb baqirishgan ekan, to‘qmoq hammalarini ura boshlabdi. Bolalarning baqirig‘idan chol uyg‘onib ketibdi. Bolalar bo‘lsa, yig‘lashib:

– Ota, to‘qmoqni to‘xtating, biz sizning xumchangizni, dasturxoningizni olib, o‘rniga boshqa xumcha, boshqa dasturxon qo‘ygan edik, tavba qildik, ota, to‘qmoqni to‘xtating, – deyishibdi.



Chol: „Tur, to‘qmoq“ deb baqirgan ekan, to‘qmoq urishdan to‘xtabdi. Bolalar yugurib borib, uylaridan „Qaynarxumcha“ bilan „Ochildasturxon“ni keltirib beribdilar.

Chol yo‘lga tushibdi. Oz yurib, ko‘p yurib, ko‘p yursa ham mo‘l yurib, ko‘l demay, cho‘l demay, yetti kecha-yetti kunduz deganda uyiga borib yetibdi. Kampirini yoniga chaqirib, „Qayna, xumcha“ degan ekan, xumchadan tilla qaynab chiqibdi, „Ochil, dasturxon“ degan ekan, har xil taomlar muhayyo bo‘libdi. Umrlarida ko‘rmagan taomlarni yeb, chol bilan kampir xursand bo‘libdilar. Shunday qilib ular murod-maqсадlariga yetibdilar.






SUSAMBIL

(O'zbek xalq ertagi)

Bor ekan-u yo'q ekan, och ekan-u to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, o'rdak surnaychi ekan, g'ozkarnaychi ekan. O'tgan zamonda bir eshak va ho'kizning xo'jayini bo'lgan ekan. U o'z yeriga dehqonlarga ekin ektirib kun kechirar ekan. Xo'jayinning o'g'illari ko'pincha eshakni minib yurar ekan, shuning uchun u eshakka egar-to'qim qildirib bergan ekan. To'qimi gajimli, juda ham chiroyli ekan. Shunday qilib, bu eshakni xo'jayin ham, xo'jayinning bolalari ham yaxshi ko'rib, suv o'rniga sharbat, o't o'rniga qora mayiz berib boqisharkan. Mayli, eshak suv o'rniga sharbat, o't o'rniga qora mayiz yeb maza qilaversin, endi gapni ho'kizdan eshiting. Xo'jayin ho'kizni ertadan kechgacha qo'shga qo'shar ekan. Ho'kiz kechqurun qorni ochib, charchab qaytib kelsa, xo'jayin uning oldiga bir bog' quruq poyani tashlab qo'yar ekan, xolos. Ho'kiz bechora har kuni bir bog' quruq poyaga yo'liqib, qorni ochib, qoni qochib, rangi to'zib, ko'p abgor bo'libdi. Bir kuni ishdan kelib, poyani yegisi kelmay atrofqa qarasa, boyagi eshak suv o'rniga sharbat, o't o'rniga qora mayiz yeb, maza qilib yotibdi. Shunda ho'kiz uning ovqatidan yegisi kelib, eshakka:

– Hoy o'rtoq, men judayam och qoldim, rahming kelmaydimi? Kel, menga ham ovqatingdan ber, – debdi. Shunda eshakning unga rahmi kelib, ovqatidan beribdi. Eshakning oldida har doim ovqat ortib yotar ekan. Xo'jayin erta bilan



chiqib ko'rsaki, bu safar eshakning oldida ovqati qolmabdi. "E, eshagimning ishtahasi endi ochilibdi", deb o'ylab, unga ko'p-ko'p ovqat soladigan bo'libdi. Bir kuni xo'jayin yana chiqib qarasa, eshakning ovqatini hadeb ho'kiz kelib yeyayotgan emish.

– Iye, sen eshakning qorning to'yib, dimog'ing ko'tarilib qolibdi-ku, – deb ertasi kuni ho'kizni eshakning o'rniga qo'yib, eshakni esa ho'kizning o'rniga qo'shga qo'shibdi. Eshak sho'rlik umrida qo'shga qo'shilmagan ekan, omochni tortishga ko'p qiynalibdi. Oxiri taqdirga tan berib, qo'shda yurishga ham ko'nikib qolibdi. Kechgacha qo'shda yurib charchab, qorni ochib uyga borsa, avvalgi ovqatlar yo'q, sharbat o'rniga bir paqir suv, mayiz o'rniga esa bir bog' poya turgan emish. Eshak bechora qorni ochligidan majbur poyani yeyishga tushibdi. Shunday qilib, xo'jayin eshakni kuzgacha rosa qo'shga qo'shibdi. Kuz kelganda esa unga yuk ortib, uzoq-uzoq yerlarga boradigan bo'libdi.


Bir kuni xo'jayin eshakni minib bozorga boribdi. Bozordan bir qop tuz sotib olib, uni eshakka ortibdi. Ustiga esa o'zi minib, yo'lda ketayotlsa, birdan havo aynib, yomg'ir yog'a boshlabdi. Hashpash deguncha darrov yo'llar loy bo'lib ketibdi. Eshak bechora ustida tuz, uning ustiga xo'jayin mingan, boz ustiga yuklar yomg'irda vazminlashgan, yomg'irdan junlari ivib, yo'lda arang yurib kelar ekan. Noinsof xo'jayin loaqal eshakning oyog'idagi taqasini ham yangilatib qo'ymagan ekan. Taqasi siyqalanib qolgani uchun eshak loyda toyilib, turtinib borar ekan. Ustidagi og'ir yuki bosib, darmoni qurib, buning ustiga xo'jayin:

– Tez-tez yurmaysanmi? – deb qo‘lidagi xalacho‘pi bilan bo‘y-niga niqtabdi, “xix-xix” deb ikki oyog‘i bilan qorniga tepibdi. Eshak shu azob bilan bir buzuq ko‘prikkacha kelibdi. Bechora eshak toyilib-toyilib ko‘prikning ustiga chiqqanida oyog‘i toyib, ko‘prikning teshigiga kirib qolibdi, ustidan xo‘jayin chalqanchasiga ag‘anab ketibdi. Shunda xo‘jayinning qahri kelib, chayonday zahri kelib, ko‘prikning tagidan bir xivichni tortib olib, o‘lganning ustiga tepgan deganday: “Meni ag‘anadigan senmisan”, deb bechora eshakni rosa uribdi. Eshakning oyog‘i qisilgan, o‘zini yuk bosgan, buning ustiga kaltakning achchig‘i. Eshak bechora bo‘ynini yerga solib, boshini loyga qo‘yib, ko‘zidan yoshini oqizib yotib qolibdi. Shunda yo‘ldan o‘tayotgan uch-to‘rt yo‘lovchi kelibdi. Eshakning ahvolini ko‘rib, unga yo‘lovchilarning rahmi kelibdi. Bir yo‘lovchi:

– Hoy, noinsof. Eshakning ahvoliga qarasang-chi, uni urib nima qilasan? Ustidagi yukini ol, bo‘lmasa o‘lib qoladi, – debdi. Keyin yo‘lovchilar kelib, biri yukning ustidagi arg‘amchini qirqibdi, biri tuzni ag‘anatibdi, biri eshakning belidan ko‘tarib, yana biri dumidan ushlab, ko‘prikdan chiqarib olibdi. Shundan keyin xo‘jayin tuzni ortib yana yo‘lga tushibdi. Eshak bechora shuncha azob bilan qorni ochib, uyga zo‘rg‘a yetib boribdi. Borgandan keyin uydagilar: “Xo‘jayin yomg‘irda ivib kelibdilar, ko‘p azoblanibdilar”, deb uni qo‘llab-quvvatlab, issiq uyga olib kirib ketishibdi. Eshakni esa ochiq havoga bog‘lab qo‘yishibdi. Xo‘jayin o‘choqqa qo‘llarini toblab, isinib, yog‘li palovni yeb maza qilibdi. Eshakka bo‘lsa, bir bog‘ quruq poyani tashlashibdi. Uning juda xo‘rliги kelib, shu ahvolda yuraverishga rozi bo‘lgisi kel-

mabdi. “Endi nima qilsam bo‘lar ekan? – deb o‘ylabdi. – Men shu xo‘jayinning qo‘lida tokay ezilaman? Axir xo‘jayinnikidan chiqib ketsam, ochdan o‘lamanmi? Kel-e, shu yerdan boshimni olib ketayin! Unda qayoqqa borsam ekan?”

Eshak yoshligida onasidan: “Susambil degan mamlakat bor ekan, u joyda o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i mo‘l ekan. Unda birov bilan birovning ishi ham yo‘q, azob-uqubat ham yo‘q, ovqat mo‘l,



qorning doim to'yib yuradi", degan gapni eshitgan ekan. Onasi bechora ko'p orzu qilsa ham, Susambilga borolmay o'lib ketgan ekan. Eshak o'ylab-o'ylab shu Susambilni topmoqchi bo'libdi. O'rnidan turib, chiranib tortib, boshvog'ini uzib, osmonga qarab bir hangrab olibdi. Keyin xo'jayinining tashqi hovlisi bilan xayrlashib, yo'lga tushibdi.

Bir odamning bir kam qirqta tovug'i, bitta xo'rozi bor ekan. Makiyonlar har kuni bir kam qirqta tuxum qilib berar ekanlar. Biroq egasi juda xasis odam ekan. Tovuqlarga loaqal uch kunda bir marta ham don sochib qo'ymas ekan. Tovuqlar hovlida xashaklarni va go'nglarni titib, qorin to'yg'azar ekanlar. Bir kuni ular qo'shnisining hovlisida donlab yurganda qo'shni xotin uy obrezida oqshoq yuvib, qozonga solibdi. Obrezning chetida to'rt-beshta oqshoq to'kilib qolibdi. Buni xo'roz ko'rgan ekan, sekin kirib, haligi donlarni yeya boshlabdi. Shunda qo'shnisining xotini ko'rib: "Kisht-kisht, qirilgurlar, kisht", deb otashkurakni u tomonga otib yuboribdi. Otashkurak xo'rozga tegib, uni bir necha marotaba yumalatib yuboribdi. Uning zarbidan xo'roz ko'p alam tortib, bir chekkaga borib yig'labdi. Xo'rliги kelib: "Xo'jayin har kuni bir kam qirqta tuxum olsa, loaqal bitta tuxumning puliga don olib sochmasa; uning eshigi yoniga borsak, o'zi ham, xotini ham kisht-kisht deb haydasa, boz ustiga qo'shnilaridan ham kaltak yesang! Menga nima azob! Kel, shu yerda yurgandan ko'ra dalalarga chiqib ketib, o'sha yerda o'zimcha tirikchilik qilsam, nima bo'ladi?" – debdi-da, o'rnidan turibdi va "qu-qu-qu" deb qichqiribdi. Keyin "pir" etib devorga qo'nibdi, undan uchib ko'chaga tushibdi-yu, dalaga qarab ketaveribdi.

Xo‘roz dala yo‘lida borayotgan ekan, uch ko‘chaning boshiga borib qolibdi. Uch ko‘chaning biridan boyagi eshak, ikkinchisidan xo‘roz chiqib kelibdi. Xo‘roz eshakka qarab:

– Assalomu alaykum, eshakvoy! – debdi.

Eshak:

– Vaalaykum assalom, xo‘rozvoy, – debdi.

Xo‘roz:

– Sizga yo‘l bo‘lsin? – deb eshakdan so‘rabdi.

Eshak:

– Susambilga,– debdi.

Xo‘roz:

– Susambil qanday joy? – debdi.

Eshak:

– Susambil – o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i, unda azob-uqubat yo‘q, maza qilib yurasan, – debdi.

Xo‘roz:

– Men ham borsam bo‘ladimi? – deb so‘rabdi.

Eshak:

– Mayli, bitta edim, sen bilan ikkita bo‘lamiz, yuraver! – debdi.

Ikkovi boshidan o‘tganlarini bir-biriga gapirib ketaveribdi.

Endi boyagi ho‘kizga kelaylik. Xo‘jayini uni ho‘kizlar bilan urishtirib yurar ekan. Ho‘kiz juda urishqoq bo‘lib, hamma joyda dong‘i ketgan ekan. Ana shunday urishtirishlardan birida ho‘kiz yetti-sakkiz ho‘kizni yengibdi. Faqat bitta juda urishqoq ho‘kiz qolibdi. Xo‘jayin ho‘kizini u bilan ertasiga urishtirmoqchi bo‘libdi. Tongda xo‘jayin:

– Endi ho‘kizni urishtirishga boraman. Shoxini yog‘lab qo‘yay! – deb molxonaga chiqsa, ho‘kizining ikki ko‘zi yumuq, rosa qattiq uxlayotgan emish. Ho‘kiz tush ko‘rayotgan ekan. Tushida katta bir yig‘in emish. Uni xo‘jayini yig‘inga olib kirsam, haligi jahldor ho‘kiz buni yig‘indan quvib chiqarish uchun hamla qilibdi. Shunda buning achchig‘i chiqib, kelayotgan ho‘kizga hujum qilib, uni bir suzibdi. Shunda ho‘kiz shoxini yog‘layotgan xo‘jayinini suzib yuboribdi. Xo‘jayinining yog‘ kosasi bir tarafga, o‘zi ikkinchi tarafga uchib tushibdi. Xo‘jayin hushidan ketibdi. Hushiga kelgandan so‘ng:

– Hali meni suzadigan senmisan?! – deb ho‘kizni chunon urib-diki, qavarmagan joyi qolmabdi. Shunda ho‘kiz yotib yig‘labdi, xo‘r-ligi kelibdi. “Men xo‘jayinga shuncha ishlarni qilib, qancha ho‘kizlar bilan urishib, ularni yengib, pul yutib bersam-u, u bo‘lsa bilmasdan qilgan ishim uchun meni o‘ladigan qilib ursam, bu qanday xo‘r-lik?! – debdi achchig‘i kelib, – Kel-e, men tokay xo‘rlik tortaman, shu xo‘jayinnikidan ketsam nima bo‘lar edi, ketaman!” U o‘rnidan turibdi-da, bir chiranib ipini uzib, yo‘lga tushibdi. Yurib-yurib bir joyga borsa, boyagi eshak ko‘rinibdi. Shunda ho‘kiz eshakni chaqirib, orqasidan yuguribdi. Eshak orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho‘kiz uni to‘xtovsiz chaqirib kelyapti. U to‘xtab turibdi, ho‘kiz yetib kelibdi. Qarasa, o‘zining sherigi ekan. Eshak:

– Ha, ho‘kizvoy, nima qilib yuribsan? – debdi.

Ho‘kiz aytibdi:

– Sendan keyin xo‘jayin meni ham rosa azobladi. Men ham bor-e deb kelaverdim. Sen qayoqqa ketyapsan?

Eshak:

– Men Susambilga ketyapman, – debdi.

Ho‘kiz:

– Susambil qanday joy? – debdi.

Eshak aytibdi:

– Susambil o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i, unda azob-uqubat yo‘q, maza qilib yurasan!

Ho‘kiz:

– Unda men ham sen bilan borsam bo‘ladimi? – debdi.

Eshak:

– Kelganing yaxshi bo‘libdi. Ikkita edik, uchta bo‘ldik. Yuraver! – debdi. Ho‘kiz, eshak, xo‘roz uchovi boshidan o‘tganlarini bir-biriga gapirishib, hasratlashib ketaverishibdi. Necha kun yo‘l yurib, bir cho‘l-u biyobonga yetishibdi. Cho‘lda ikkita kalamushdan o‘zga hech kim yo‘q ekan. Kalamushlar cho‘lda oziq-ovqat kamligidan, olis joylarga ham borib yer qazir, u yerda qorni to‘yar-to‘ymas ozgina ovqat topib, yana iziga qaytishar ekan. Bora-bora cho‘lda ovqat topilmay qolibdi. Bir kuni ularning qorni ochiqib, uyasining og‘ziga chiqib shumshayib o‘tirishganda, uzoqdan haligi uchovlon: eshak, ho‘kiz va xo‘rozlar ko‘rinishibdi. Ularga qarab turgan kalamushlardan biri:

– Shu ko‘ringanlar yo‘lovchi bo‘ladi. Yur, ulardan ovqat olaylik. Zora rahmi kelib, biror narsa tashlab ketishsa, – debdi. Ikkalasi yo‘l-ning ustiga chiqib turibdi. Ko‘ringan hayvonlar ham yetib kelishibdi. Shunda kalamush ulardan ovqat tilabdi. Kalamushlarning ahvolini ko‘rib hayratda qolgan eshak o‘zini bosiq tutib:





– Ey birodarlar, biz ham sizlarga o‘xshab och qolganlardanmiz. Agar ovqat kerak bo‘lsa, biz bilan birga yuravinglar, – debdi. Bir kalamush eshakdan:

– Qayerga ketyapsizlar? – deb so‘rabdi.

Eshak:

– Biz Susambilga ketyapmiz, – debdi.

– Susambil qanday joy? – deb so‘rabdi ikkinchi kalamush.

– Susambilni aslo so‘rama! Susambil o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i, unda azob-uqubat yo‘q, maza qilib yurasan! – debdi eshak.

– Bo‘lmasa biz ham boraylik, – deyishibdi kalamushlar.

– Uchta edik, beshta bo‘ldik, yuraveringlar, – debdi eshak. Mana endi bular beshovi boshlaridan o‘tgan sarguzashtlarini bir-biriga gapirishib, Susambilga ketaveribdilar.

O‘sha cho‘lda bir gala ari bor ekan. Ular ham ovqat yo‘qligidan och qolib, nima qilarini bilmay, osmonda g‘o‘ng‘illab uchib ketayotgan ekanlar, haligi Susambilga ketayotgan besh jonivorga yo‘liqishibdi. Arilar ularni ko‘rib: “Uh, mana ovqatning konidan chiqdik, keragini olib qol!” deb chaqqani kirishishibdi. Shunda eshak:

– Ey ukalar, sizlar ham bizga o‘xshab och qolib qiynalganga o‘xshaysizlar. Bizning tanamizda shiradan asar ham yo‘q. So‘rganlaring bilan hech narsa chiqmaydi. Shiramizni xo‘jayinlarimiz so‘rib olgan. Agar ovqat kerak bo‘lsa, biz bilan yuraveringlar! – debdi. Arilar ularning ahvolini ko‘rib: “Ular ham bizga o‘xshagan och qolganlardan ekan”, deb qayoqqa ketishayotganini so‘rabdi.

– Biz Susambilga ketyapmiz, – debdi beshovlon.

– Susambil qanday joy? – deb so‘rabdi arilar.

– Susambil o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i, unda azob-uqubat yo‘q, maza qilib yurasiz, – debdi eshak.

– Bo‘lmasa biz ham boraylik, – debdi arilar.

– Mayli, beshta edik, ko‘p bo‘ldik, – debdi eshak. Shunday qilib hammasi: “Susambil, qaydasan?” deb boshidan o‘tganlarini gaplashib, hasratlashib ketaveribdilar. Yo‘lda ketayotib: “Qachon Susambilga yetamiz?” deb yuraklari jig‘illab, eshakdan: “Yana bir



– Ey birodarlar, biz ham sizlarga o‘xshab och qolganlardanmiz. Agar ovqat kerak bo‘lsa, biz bilan birga yuraveringlar, – debdi. Bir kalamush eshakdan:

– Qayerga ketyapsizlar? – deb so‘rabdi.

Eshak:

– Biz Susambilga ketyapmiz, – debdi.

– Susambil qanday joy? – deb so‘rabdi ikkinchi kalamush.

– Susambilni aslo so‘rama! Susambil o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i, unda azob-uqubat yo‘q, maza qilib yurasan! – debdi eshak.

– Bo‘lmasa biz ham boraylik, – deyishibdi kalamushlar.

– Uchta edik, beshta bo‘ldik, yuraveringlar, – debdi eshak. Mana endi bular beshovi boshlaridan o‘tgan sarguzashtlarini bir-biriga gapirishib, Susambilga ketaveribdilar.

O‘sha cho‘lda bir gala ari bor ekan. Ular ham ovqat yo‘qligidan och qolib, nima qilarini bilmay, osmonda g‘o‘ng‘illab uchib ketayotgan ekanlar, haligi Susambilga ketayotgan besh jonivorga yo‘liqishibdi. Arilar ularni ko‘rib: “Uh, mana ovqatning konidan chiqdik, keragini olib qol!” deb chaqqani kirishishibdi. Shunda eshak:

– Ey ukalar, sizlar ham bizga o‘xshab och qolib qiynalganga o‘xshaysizlar. Bizning tanamizda shiradan asar ham yo‘q. So‘rganlaring bilan hech narsa chiqmaydi. Shiramizni xo‘jayinlarimiz so‘rib olgan. Agar ovqat kerak bo‘lsa, biz bilan yuraveringlar! – debdi. Arilar ularning ahvolini ko‘rib: “Ular ham bizga o‘xshagan och qolganlardan ekan”, deb qayoqqa ketishayotganini so‘rabdi.

– Biz Susambilga ketyapmiz, – debdi beshovlon.

– Susambil qanday joy? – deb so‘rabdi arilar.

– Susambil o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i, unda azob-uqubat yo‘q, maza qilib yurasiz, – debdi eshak.

– Bo‘lmasa biz ham boraylik, – debdi arilar.

– Mayli, beshta edik, ko‘p bo‘ldik, – debdi eshak. Shunday qilib hammasi: “Susambil, qaydasan?” deb boshidan o‘tganlarini gaplashib, hasratlashib ketaveribdilar. Yo‘lda ketayotib: “Qachon Susambilga yetamiz?” deb yuraklari jig‘illab, eshakdan: “Yana bir



gapirib bering. Susambil qanday joy o‘zi?!” – deb so‘rashar ekan. Eshak ham Susambilni maqtab, ularning ko‘nglini ko‘tarar ekan. Hammasi Susambilga borsak unday qilamiz, bunday qilamiz, deb o‘zlaricha shirin-shirin xayollar surib borishar ekan.

Ular yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Oxiri dimog‘lariga Susambilning xushbo‘y shabadasi urilibdi. Susambilga ham yetib kelishibdi. U juda ham keng, bepoyon bir joy ekan. Havosi juda toza, u yerda ulkan tog‘ bo‘lib, uning shabadasi doim g‘irillab kelib turar ekan. Yerda ko‘m-ko‘k maysalar, bedalar yashnab yotibdi. Bir tomonda bug‘doy, arpalar; bir tomonda qovun-tarvuzlar, yana bir taraf keta-ketguncha bog‘: uzum, anjir, o‘rik, shaftoli va turli-tuman mevalar g‘arq pishgan. Ariqlardagi suv oppoq sutday sharqiraydi. Bu manzaralarni ko‘rib ko‘ziga ishonmagan bechora do‘stlar esa aqldan ozdik deb o‘ylashibdi. Xursandligidan ba‘zilari yig‘lab olishibdi. Ular ancha vaqt och yurishgan ekan. Har qaysisi istagan ovqatini yeb, qornini to‘yg‘azib, vaqtlarini xushlashib, so‘ngra salqin bir joyga kelib dam olishibdi. Yo‘l azobi – go‘r azobi deganlariday, ular yo‘lda rosa charchashgan ekan, shu salqin joyda yotib uzoq uxlashibdi. Uyqudan turib, yana xohlagan ovqatlarini yebdilar. Ular Susambilga kelib rosa rohatlanishibdi.

Susambilning bir tomoni baland tog‘ bo‘lib, unda turli xil jonivorlar bor ekan. Ammo ularning ashaddiy dushmani bo‘rilar ham shu tog‘da yashar ekan. Bir kuni bo‘rilar bazm qilib, ichkilik ichib, kabob yeb o‘tirgan ekan, ularning podshosi uzoqdan haligi eshak bilan ho‘kizni ko‘rib qolibdi.

– Uh, bizga barra kabob topildi, huv ana, o‘tlab yuribdi. Uch-to‘rtta bo‘lib borib ularni olib kelinglar, kabob qilib yeymiz, – debdi bo‘rilarning podshosi. Bo‘rilarning ichida bitta dovdiri bor ekan, u o‘rnidan sakrab turib:

– Shu bekalla, ahmoqlar uchun uch-to‘rt kishining nima keragi bor? Bitta o‘zim borib, ularni olib kelaman! – debdi. Bo‘rilarning ichida yana bitta hovliqmasi bor ekan. U haligi bo‘rining gapini eshitib, shartta o‘rnidan turib:

– Hoy, nima deyapsan o‘zing? Men turganda sen qayoqqa borasan? O‘tir joyingga! Men o‘zim borib olib kelaman! – debdi. Bo‘rining achchig‘i kelibdi:

– Meni pisand qilmayapsan, sendan nima kamligim bor?! – deb ikkovi olishib ketibdi. Shu payt bo‘rilarning podshosi turib:

– Hoy muttahamlar, urishmanglar! Bor, ikkoving borib olib kel! – debdi. Ikkovi chopqillashib ketishibdi. Bular ketayotganlarida bizning susambilliklar o‘tlab yurishgan ekan. Bir vaqt ho‘kiz yerdagi ko‘katdan og‘zini to‘ldirib, boshini ko‘tarib, o‘tni chaynab, tog‘ tomonga qarasa, uzoqdan chopib kelayotgan ikkita bo‘riga ko‘zi tushibdi. Ho‘kizning yuragi shuvullab ketibdi. U qo‘rqib og‘zidagi o‘tini yerga tashlab, sheriklarini chaqiribdi. Sheriklari ham bo‘rilarni ko‘rishibdi. “Endi nima qilamiz? Qochamizmi, turamizmi?” deb maslahatlashibdilar. Shunda eshak:

– Qochsak, quvib yetib oladi. Yaxshisi qochmaymiz, – debdi.

Ho‘kiz:

– Agar oldimizga kelsa, nima qilamiz? – debdi oyog‘i qaltirab. Shunda xo‘roz:

– Men daraxtning tepasiga uchib chiqib ketaman, – debdi.

Kalamushlar:

– Biz yerni kavlab kirib ketamiz, – deyishibdi.

Eshak:

– Hangrab turaveraman, – debdi.

Arilar:

– Biz ro‘para kelganini chaqib, hamma yog‘ini shishirib tashlaymiz! – deyishibdi. Ho‘kizga arilarning gapi juda ham yoqib tushibdi:

– Bo‘lmasa sizlar joningiz boricha chaqinglar. Qolganlarini menga qo‘yib beringlar!

Bular maslahatni bir qilib turishganda bo‘rilar yetib kelibdi. Bo‘rining haligi hovliqmasi sherigiga:

– Huv anavini sen ko‘tar! Mana buni men ko‘taraman, – deb ho‘kizga qarab yuguribdi. Shunda ho‘kiz orqasiga tisarilib, bo‘ri tomon yugurib borib bir suzgan ekan, bo‘ri “dod” degancha yetti dumalab tushibdi. Buni ko‘rgan sherigi yugurib kelgan ekan, ho‘kiz uni ham qattiq suzibdi. Kalamushlar qo‘rqqanidan yerni kavlab kirib ketishga urinibdi. Yer toshloq, qattiq ekan, ular kavlab kirolmabdilar, bir zumda allaqancha joyni o‘yib yuboribdilar. Xo‘roz esa daraxtga chiqib olib, hadeb “qu-qu-qu” deb qichqiraveribdi. Arilar har ikkala bo‘riga yopishib chaqaverishibdi-chaqaverishibdi, bir zumda do‘mbira qilib shishirib tashlashibdi. Bo‘rilar shunda ham qochmay, jonholatda kelib, ho‘kizga yopishibdilar. Ho‘kiz ularni suzaverib, a‘zoyi badanini yara qilib tashlabdi. Eshak bo‘lsa bor ovozi bilan hangrab, u yoqdan bu yoqqa yuguraveribdi. Nihoyat, bo‘rilar olishib-olishib charchashibdi. Qarasa, ho‘kiz

bilan arilar ularni o'ldirib qo'yadiganday. Shunda haligi hovliqma bo'ri qochishga tushibdi, orqasidan ikkinchisi ergashibdi. Ular shu qochganicha podshoning oldiga yetib borishibdi. Ularning hamma yog'i yorilgan, qonlari oqqan, ari chaqqan yuzlari shishib, ko'zlari ko'rinmaydigan bir ahvolda ekan. Podsho va sheriklari ularning ahvolini ko'rib, rangi o'chib, qoni qochib, iyaklari qaltirab, ko'zlari yaltirab qolibdi. Shu payt bo'rilarning podshosi:

– Sizlarga nima bo'ldi? – deb so'rabdi.

– Ey taqsir, bular barra kabob emas, boshga kelgan balo ekan! – deyishibdi.

Bo'rilarning podshosi:

– Ha, nima bo'ldi? – desa, bo'rining biri:

– Ular bizning jonimizga qasd qilib kelgan ekan. Ularning ichida dev va bir juft go'rkov ham bor ekan. Dev gurzisi bilan bir urganda, agar sher bo'lsa ham, necha dumalab ketadi, – debdi.

Bo'rining ikkinchisi:

– Ey mahmadona! Sen jim tur! O'zim gapiraman. Ularning ichida kamonchi askarlari ham bor ekan. Jonni olish uchun nayzasini suqsa, a'zoyi badaning achishib, shishib ketar ekan, – debdi.

Sherigi:

– He, sen bilmaysan! Ular go'rkovi bilan kelgan ekan. Hali biz o'lmay turib, har birimizga yettitadan go'r qazib qo'yibdi, – debdi.

Ikkinchisi:

– Sen ko'rmabsan! Ular jarchisi bilan kelgan ekan. Hali biz o'lmay turib, daraxtning tepasiga chiqib, hadeb odamlarni hayvonlarni yordamga chaqiryapti. – debdi.



Sherigi:

– Lekin ularning ichida bir kattasi ham bor ekan. Unisi boshlig‘i bo‘lsa kerak. Bizga yaqinlashmadi, lekin uzoqda turib ish o‘rgatib, ularga baqirib turdi. Agar unisi ham kelganda, biz mutlaqo o‘lar edik, – debdi. Bo‘rilar ularning aft-angorini ko‘rib, gaplarini eshitib, qo‘rqib vasvasaga tushishibdi. Qo‘rqqa boshlagan bo‘rilarning podshosi ularga qarab:

– Endi nima qilamiz? – debdi.

Haligilar:

– Ey taqsir, agar baloga duchor bo‘laylik, kunimiz bitibdi, o‘laylik desangiz, turaveramiz. Bo‘lmasa qochamiz. Agar orqamizdan quvsa, hali zamon yetib keladi, – debdi. Bu so‘zni eshitib bo‘rilarning podshosi yana qo‘rqibdi.

– Unda tez turinglar, jo‘naymiz, – debdi va hammasi Susambil tog‘ini tashlab, yetti tog‘ nariga qochib ketishibdi.

Susambilliklar endi tamom erkinlikka chiqib, og‘zi oshga tegib, to‘rt kunda semirib ketibdi. Goho xo‘jayinlarinikida ko‘rgan kunlari esga tushsa, o‘kinib, bu yerdagi rohatdan esa sevinib, Susambilning ovini ovlab, dovini dovlab, maza qilib yurishaverishibdi. Shu bilan murod-maqсадlariga yetishibdi.

82(50')
X 22

O'zbek xalq ertaklari [Matn]: Ertak / „Ensiklopediya“
nashriyoti, M. Ch. J. 2022. – 32 bet.

ISBN 978-9943-07-759-1

UO'K 398.21(=512.133)
KBK 82(50')

Rassom:
Shohrux Toshturdiyev

SUSAMBIL

„Ensiklopediya“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shohrux Toshturdiyev*
Kompyuterda sahifalovchi *Shahnoza Sobirova*

Bosishga ruxsat etildi 13.10.2022. Bichimi 84×108 1/16.
Kegli 16. „Times New Roman“ garniturası.
Hisob-nashriyot t. 02,00.
Adadi 5 000 nusxa. Buyurtma №248.



Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.



Ensiklopediya_nashriyoti_MU2021



Ensiklopediya_nashriyoti

ISBN 978-9943-07-759-1



9 789943 077591